

BACHADON ANATOMIYASI VA GISTALOGIYASI.**Barnoxonim Maribjanovna Yuldasheva***Alfraganus Universitety Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 4-bosqich talabasi.**barnoyuldasheva372@gmail.com**+998994728841*

Anotatsiya: *Bachadon (bachadon- uterus) ayollar reproduktiv tizimining muhim qismi bo‘lib, u bachadonning pastki qismida joylashgan va qinga o‘tish yo‘lini ta‘minlaydi. Ushbu maqola bachadonning anatomiyasi, gistologik tuzilishi haqida ma‘lumot beradi.*

Tayanch so‘zlar: *bachadon, to‘qimalar, hujayralar, hayz ko‘rish, miometriy qavati, mushak og‘rig‘i.*

Kirish: Bachadon!

Bachadon ayollarda siydik pufagi orqasida, to‘g‘ri ichak oldida joylashgan bo‘lib, bola ko‘rish yoshdagi ayollarda o‘ratacha uzunligi **7,5** sm, **5** sm kengligi va **2-3** sm **2,5** sm chuqur bo‘ladi. Sog‘lom bachadon to‘nkarilgan nok shaklida, bo‘lib ichi bosh va atrofi qalin mushkullar bilan o‘ralgan bo‘ladi. Har biri tuxum bilan to‘ldirilgan tuxumdonlarga tutashgan ikkita turibka matkaga yuqori ikki tomondan ulanib turadi.

Bachadonning **tanasi, tubi,** va **bo‘yni** bo‘ladi.

Bachadon gistologik jixatdan 3 ta asosiy qavatdan iborat.

ENDAMETRIY**MIOMETRIY****SERROZ QAVAT (QORIN PARDADAN) iborat**

Endometriy bachadonning ichki shilliq qavatini hosil qiladi. Bu qavat hayz sikli davomida har oy o‘zgaradi va homiladorlik vaqtida rivojlanadi. Bachadon ichida shilliq qavat burmalari yo‘q, asosan mayda bezlar uchraydi. Hayz sikli davomida endometriy qavati o‘zgaradi: qalinlashadi va homiladorlik bo‘lmagan hollarda hayz bilan birga chiqarib yuboriladi.

Miometriy bachadonning muskul qavatidir va u bachadon qisqarishi va tug‘ish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. U bachadonning tashqi qavatini hosil qiladi va uni atrof to‘qimalardan himoya qiladi. Muskul qavat yaxshi rivojlangan qon tomirlarga boy.

Miometriy qavati mushak hujayralaridan iborat bo‘lib, u uchta qavatga bo‘linadi: ichki, o‘rta va tashqi.

Miometriy bachadonning qisqarishida va tug‘ish jarayonida muhim ro‘l o‘ynaydi. Perimetriy qavati bachadonni qoplaydigan seroz qavatdir. U bachadonni atrof to‘qimalardan

himoya qiladi va uning harakatini ta'minlaydi. Bachadon uzunligi turli kasalliklar va patologiyalar bilan zararlanishi mumkin.

Ya'na shuni aytib o'tish kerakki Hoviladorlikda muskul tolalarini yo'g'on tortishi va yangi tolalar paydo bo'kishi hissobiga bachadon kattalashadi. Homila tug'ulgach bachadon qisqaradi va yangi tolalar yo]qolib ketadi. Shu bilan bir qatorda organizim bo'shashgan muskul holatiga keladi bu mahal tuqgan ayolga og'ir jismoniy mehnatlar man etiladi, chunki jismoniy yuklama chanoq tubining muskullari va boshqa boylamlari bo'shashib, bachadon tushishi extimoli yuqori bo'ladi.

Bachadon saratoni — bachadon epiteliy hujayralarining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan kasallik bo'lib, asosan IPV (inson papilloma virusi) infeksiyasi bilan bog'liq. Endometrioz — endometriy hujayralarining bachadondan tashqari o'sishi bo'lib, bu og'riq va boshqa muammolarga olib kelishi mumkin.

Miomalar — bachadonda o'sadigan yaxshi sifatli hujayralar bo'lib, ular ko'pincha simptomsiz o'tadi, lekin ba'zi hollarda og'riq va qon ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Poliplar — endometriyda o'sadigan yaxshi sifatli hujayralar bo'lib, ular qon ketishi va boshqa muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Natijalar:

Bachadon qoplamasi epiteliy hujayralaridan iborat qavatdir. Bu qavat asosan kub shaklidagi epiteliy hujayralaridan iborat bo'lib, ularning vazifasi himoya va sekretsiyadir. Epiteliy qavati shuningdek, bachadon kanali orqali o'tadigan sperma uchun ham muhim ro'l o'ynaydi. Ovulyatsiya paytida bu qavat sekretsiasining ko'payishi spermatozoidlar uchun qulay muhit yaratadi. Epiteliy qavati ostida asosan bog'lovchi to'qimadan iborat qavat joylashgan. Bu qavatda qon tomirlari, nervlar va limfa tomirlari joylashgan. Stroma qavati bachadon tuzilishini qo'llab-quvvatlaydi va uni qon bilan ta'minlaydi. Bu qavatda joylashgan hujayralar yallig'lanish va tiklanish jarayonlarida muhim ro'l o'ynaydi. Bachadonning asosiy mushak qavati asosan silliq mushak hujayralaridan iborat. Bu mushak qavati tug'ish vaqtida bachadon va bachadon qisqarishini ta'minlaydi.

Xulosa

Bachadon gistologiyasi ayollar reproduktiv tizimining muhim qismi bo'lib, uning tuzilishi va funksiyalari haqida Bachadon bo'yni gistologiyasi ayollarning reproduktiv tizimining muhim qismidir va uning tuzilishi va funksiyalari haqidagi bilimlar kasalliklarning oldini olish va davolash uchun muhimdir. Bachadon bo'yni kasalliklarini muntazam tibbiy ko'rik va skrining tekshiruvlari orqali erta aniqlash va davolash mumkin. Ayollar salomatligini nazorat qilish va shifokor bilan maslahatlashish orqali o'zlarini bachadon bo'yni kasalliklaridan himoya qilishlari muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmvedov .N.K., Shomirzayev .N.H., “Normal va topografik anatomiya” T 1991
2. Q.R.To’xtaev., E.F.Azizov., M.A.Abdurahmanov.,E. A. Tursunov., K.I. Rasulov., M.X. Rahmatova
3. S.M. Bortnikova. T.V. Zubaxina. Nervanye va psixicheskie bolezni. Rostov-na-Donu, "Feniks", 2005 yil.
4. X.Q. Shodmonov, X.Sh. Eshmurodov, O.T. Tursunova. Asab va ruhiy kasalliklar. T., «Bilim», 2004,
5. Bo'riyev F., Yandashev J., Gematologik kasalliklar patogenezi. Navoiy - 2009.